Abstract: On this topic, the marketing of drugs ivermectin, closantel and iversantaplus, containing antiparasitic drugs, used in the veterinary sphere in Uzbekistan, economic analysis of the economic efficiency of the category, quantity, quality, value, cost, profit, and the results, showing the profitability. po realizatsii etix trex vidov lekarstvennyx sredstv privedenы zaklyuchenia, osvnoe soderjanie nekotoryx postanovleny i postanovleni, izdannyx v oblasti veterinary medicine, pharmaceutical, zaklyuchenia i predlogeniya, a takje ispolzovannaya literatura.

Key words: marketing, rynok, tsena, Gosreestr, antiparasitic preparation ivermectin, clozantel, pharmaceutical preparation, iversantaplus, kolichestvo, kachestvo, dohod, pribyl, profitability and other.

Аннотация: Благодаря данной теме реализован маркетинг препаратов ивермектин, клозантел и иверсантаплюс, содержащих противопаразитарные вещества, которые применяются в ветеринарной сфере Узбекистана, достигнут экономический анализ категорий экономической эффективности количества, качества, валового дохода, себестоимости, прибыли и показателей рентабельности. по результатам реализации этих трех видов лекарственных средств приведены выводы, основное содержание некоторых постановлений и постановлений, изданных в области ветеринарной медицины, фармацевтистики, выводы и предложения, а также использованная литература.

Ключевые слова: маркетинг, рынок, цена, Госреестр, противопаразитарный препарат ивермектин, клозантел, фармацевтический препарат, иверсантаплюс, количество, качество, выручка, прибыль, рентабельность и др.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5696-son Farmoni ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida Farmonga quyidagilar kiritilgan: boshqarmalarning namunaviy tuzilmlari; O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi huzuridagi “O'zbekchorvanasi” agentligining tashkiliy tuzilmasi; qo'mita huzuridagi “O'zbekchorvanasi” agentligi markaziy apparatining



tuzilmasi; Respublika, tumanlar (shaharlar) hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining tuzilmasi; xavfsizligi davlat markazlarining namunaviy tuzilmasi; Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha Davlat ilmiy markazining tuzilmasi kabilar kiritilgan.

2019–2021-yillarda chorva mollari bosh soni, go'sht va sut ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Farmonda malakali xorijiy mutaxassislarini ishga qabul qilish va ularga ish haqi miqdori va boshqa to'lovlarni chet el valyutasida belgilash huquqi berilishi ham kiritilgan. Import qilingan va qishloq xo'jaligi korxonalariga sotilgan har bir bosh nasldor qoramol uchun subsidiya berish tartibi hamda aholi xonadonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda parvarish qilinayotgan chorva mollarini sug'ortalash tartiblari kiritilgan. Eng asosiy masalalardan biri bo'lgan, tarmoqda ish haqi tarif razryadlarini oshirish kabi tartiblar to'g'risidagi takliflari berilgan.

Ichki iste'mol bozorini sifatlari go'sht va go'sht mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlash, go'sht narxining barqarorligini saqlash maqsadida 2019–2021-yillarda har bir tumanda qoramollarni bo'rdoqiga boqishga ixtisoslashgan kamida ikkitadan 300-500 boshga mo'ljallangan zamonaviy komplekslarni tashkil etish hamda sifatlari sut va sut mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlash, sut narxining barqarorligini saqlash maqsadida har bir tumanda kamida ikkitadan 250-300 boshga mo'ljallangan sut yo'nalishidagi korxonalarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish topshirilgan. Mazkur qarorning 23-ilovasiga muvofiq 2019-2021-yillarda chorva mollari bosh soni, go'sht va sut ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash kiritilgan.

Chorvachilik xo'jaliklaridagi mavjud chorva mollari uchun ajratilgan yer maydonlarini ikki oy muddatda xatlovdan o'tkazish va ulardan samarali foydalanishning holatini har bir xo'jalik kesimida alohida o'rganib chiqish, o'rganishlar natijasi bo'yicha mavjud shartli mol bosh soniga nisbatan tafovut aniqlanganda, ortiqcha yer maydonlaridan samarali foydalanish yuzasidan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Paxta va g'alla ekin maydonlariga almashlab ekiladigan chorva ozuqasi uchun beda ekini to'liq ekilishini tashkil etish hamda yetishtiriladigan hosilni chorvachilik xo'jaliklari va aholiga tizimli yetkazishni ta'minlash masalasi ham belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari dan foydalanish va shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, chorvachilik subyektlariga ajratilgan yer maydonlariga faqat chorva ozuqa ekinlari ekilishiga mas'ul etib belgilansh, yangidan tashkil etiladigan chorvachilik subyektlariga me'yor bo'yicha ozuqa ekinlari ekish uchun yer maydonlarini ajratib berilishiga shaxsan javobgar hisoblanadi, -deyilgan.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining hisob-kitoblariga asosan Agentlikni zarur mebel, kompyuter texnikasi va inventarlar bilan jihozlash uchun yetarli mablag'lар ajratish aytilgan;

Agentlikka xizmat avtotransport vositalarini sotib olish uchun zarur mablag'larning ajratilishini ta'minlanishi hamda Agentlik va uning hududiy bo'linmalariga 16 ta xizmat yengil va 161 ta maxsus avtomobilarni saqlashga limit belgilanishi topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yilning 23-yanvaridagi PF-20-son Farmoni qabul qilindi. Unda, Respublikada so'nggi yillarda dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika muomalasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi, shu bilan birga, farmatsevtika sohasini isloh qilish, farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazishni takomillashtirish va dorixonalar faoliyatini tartibga solish talab etilayotganligi kiritilgan.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Bugungi kunda aholi chorva mollarini turli xil tashqi va ichki parazitlar tinimsiz bezovta qilib turadi. Natijada chorva mollari tinchligi buzilib, mahsulorligi keskin kamayib, umumiyligi holati yomonlashib, ozg'in va juda achinarli ahvolga kelib qoladi. Agar choralar ko'rilmasa, parazitlar haddan tashqari ko'payib, hattoki, hayvonning o'limigacha olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, turli xil chivinlar, kanalar va boshqa qon so'ruvchi parazitlar xavfli yuqumli kasalliklarni tashuvchisi hisoblanadi. Masalan, telerioz, babizioz, bezgak va shunga o'xshash xavfli kasalliklarni qo'zg'atuvchilarini kasal hayvon organizimidan olib boshqa bir sog'lom hayvon organizimiga yuqtirishi mumkin. Shu sababdan bu parazitlarga qarshi jiddiy kurash olib borilishi kerakligi talab etiladi. Bu parazitlarning ko'payib ketishiga asosiy sabab iqlim (ob-havoning) o'zgarishi, ya'nisi issiq, quruq iqlim natijasida parazitlar jadal ko'payib ketmoqda. Yana bir muhum sabablardan biri bu sanitariya-gigiyena qoidalariiga rioya etmaslikdir. Chunki hayvonlarning ichki parazitlari, yani askarida qoramollar tasmasimon chuvalchangi, gjjjalar, fatsillioz va yana bir qancha parazitlar tuxumlari hayvon go'ngi bilan tashqi muhitga chiqadi va rivojlanadi. Go'ng o'g'it sifatida o'simliklarga aralashib ketadi, natijada parazitlar maysalarni iste'mol qilgan hayvon organizmiga qayta tushib rivojlanadi. Shu bois zararlangan hayvon go'ngini o'g'it sifatida ishlatishtdan oldin go'ngni kimyoviy moddalar bilan yaxshilab zararsizlantirish kerak. Bugungi kunda bu dorilarga nafaqat bizning davlatda,



balki boshqa ko'plab davlatlarda bu preparatlarga talab oshgan. Shu bois yurtimizning bir qancha farmatsevtik zavodlarida ushbu preparatlar ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yilgan. Bundan tashqari bu dorilarni mamlakatimizga farmatsevtika sanoati yaxshi rivojlangan Rossiya, Ispaniya, Niderlandiya kabi davlatlardan import qilish ham oshib bormoqda.

Ma'lumki, dori vositalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot yo'nalishini tanlashda marketing tahlil asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Keng ma'noda marketing tadqiqotlar asosida axborotni yig'ish, qayta ish-lashdan iborat bo'lib, farmatsevtika bozorining ilmiy usullari asosida tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dori vositalarining marketing tadqiqotlar blokida asosiy yo'nalishlar assortimentini o'rganish, uning foizini hisoblash, o'sish dinamikasi, faol moddalar, farmakoterapevtik guruhlar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar bo'yicha tahlil qilishdir.

Ushbu izlanishlar tashqi va ichki parazitlarga qarshi qo'llaniladigan ivermektin, klozantel, iversantaplus kabi dori vositalarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida mavjud va veterinariya amaliyotida ishlatilayotgan dori vositalarining assortimentini tahlil qilishga qaratilgan.

Ishning maqsadi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida ivermektin, klozantel, iversantaplus dori vositalarining qanchalik veterinariya xizmati uchun samaradorligiga, farmatsevtika bozorida xaridorgirligini aniqlashga, dorixonalar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish, dori preparatlarini tannarxini arzonlashtirish, buyurtmachi va veterinariya dori preparatlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o'tasida tuzuladigan shartnomalarni "Buyurtma stol" lari orqali amalga oshirib dorixonalar rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan veterinariyaga oid tarkibida antiparazitar moddalar saqlagan ivermektin, klozantel, iversantaplus dori vositalarining marketing tahlili Davlat Reestri (2019-2021-yy) asosida olib borildi. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, veterinariya amaliyotida antiparazitar dori vositalariga talab yildan yilga oshib borayotganini namoyon qildi. Bu preparatlarni ko'plab davlatlar ishlab chiqaradi, jumladan, O'zbekiston, Xitoy, Rossiya, Gollandiya, Ispaniya va shu kabi davlatlarda jadal ravishda ishlab chiqarilib savdoga qo'yilmoqda. Tadqiqotning dastlabki bosqichida asosan tashqi va ichki parazitlarga qarshi samarali dori vositasi hisoblangan ivermektin, klozantel, iversantaplus ineksiyon dorilarining veterinariya dorixonasidagi 1 oylik savdo davomida qaysi biri qanchalik savdogirligi, faol va passiv savdo bo'l shining sabablari ko'rib chiqildi. Ushbu iqtisodiy tahlil natijalari tadqiqotlarimizning quyidagi jadvallarida keltirilgan: Tadqiqotlari- mizda 2023-yil va 2024-yilning yanvar oylaridagi o'rtacha (1-jadval) hisobda 10 va 20 kun davomida sotilgan 3 xil veterinariya kasalliklarini oldini olish va chorvani davolash dori preparatlarini veterinariya aptekalarida sotilgan miqdorlari keltirilgan. Uchta preparatlar ichida bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonuniga binoan eng ko'p ivermektin preparati 10 kunda 135 ta sotilgan bo'lsa, 20 kunda esa 315 ta dori preparati sotildi. Mavjud uchta preparatlarni 10 kunda 45 foizi, 20 kunda esa 42 foizi sotilganligi 1-jadvalda keltirilgan. Uchta preparat jami 10 kunda 300 ta, 20 kunda esa 740 ta sotildi, eng kam sotilgani iversantaplus preparatidir. Iqtisodiy tahlil natijalariga qaraganda eng ko'p sotilgan preparat ivermektindir. Eng kam sotilgani klozantel preparatidir.

1-jadval: Dori vositalarini sotish hajmining tahlili

№	Preparatlar nomi	Sotilgan dorilar, soni, flakon, 50 mg		Sotilgan dorilar, foiz hisobida, %	
		10 kunda	20 kunda	10 kun	20 kunda
1	Ivermektin	135	315	45	42
2	Klozantel	90	240	30	32
3	Iversantaplus	75	195	25	26
Jami		300	740	100	100

Iqtisodiy tahlil natijalari (2-jadval) berilgan bo'lib, 2023 va 2024-yilning yanvar oylaridagi o'rtacha 10 kun ichida veterinariya dori preparatlarining sotuvidan tushgan 3 million 225 ming so'mni tashkil etdi. Ushbu 3 ta veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar so'mmasi 2 million 317 ming 500 so'm bo'ldi. Olingan foya 907 ming 500 so'mni tashkil qildi. Samarqand shahardagi 10 (onta) veterinariya dorixonalari faoliyatini iqtisodiy tahlil qilganimizda o'rtaча rentabellik darajasi 39,2 foizni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich boshqa veterinariya dorixonalari faoliyati bilan solishtirganimizda o'rtaча iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadi, eng ko'p foya olib kelgan veterinariya dori preparati "Iversantaplus" preparati bo'ldi. 10 kunda 75 dona, 20 kunda 195 ta sotilgan, lekin uning sotish bahosi esa qolgan ikki preparatlarga nisbatan 4,0 10 (kunda) va 1,5 (20 kunda) barobar bahosi yuqori bo'lganligi uchun ham undagi foydalilik darajasi 44,2 foizni tashkil etgan. Chunki "Iversantaplus" 50 mg flakoni bahosi 13,0 ming so'm, uni ishlab chiqarish



tannarxi esa 9,0 ming so'm bo'lgan. "Iversantapplus" preparatini sotishdan olingen foyda esa 300 ming so'm, "Ivermektin" dan 337 ming 500 so'm, "Klozantel" dan 270,0 ming so'm bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar 10 kun ichidagi tahlil natijalaridir (2-jadval).

2-jadval: Samarqand shahridagi veterinariya dorixonalaridagi 2023-2024-yillar oralig'ida sotilgan veterinariya preparatlarning iqtisodiy samaradorlik tahliliy natijalari (10 kunlik natija)

Nº	Preporatlar nomi	Soni, 50ml, flakon	Bahosi, ming so'mda	Tannarxi, ming so'mda	Jami daromad, ming so'mda	Jami tannarx, ming so'mda	Foyda, ming so'mda	Rentabellik darajasi, %
1	Ivermektin	135	9	6,5	1 215	877,5	337,5	38,5
2	Klozantel	90	11,5	8,5	1035	765,0	270,0	35,3
3	Iversantapplus	75	13	9,0	975	675,0	300,0	44,4
	Jami	300	X	X	3225	2317,5	907,5	39,2

3-jadval: Samarqand shahridagi veterinariya dorixonalaridagi 2023-2024-yillar oralig'ida sotilgan veterinariya preparatlarning iqtisodiy samaradorlik tahliliy natijalari (20 kunlik natija)

Nº	Preporatlar nomi	Soni, 50ml, flakon	Bahosi, ming so'mda	Tannarxi, ming so'mda	Jami daramad, ming so'mda	Jami tannarx, ming so'mda	Foyda, ming so'mda	Rentabellik darajasi, %
1	Ivermektin	315	9	6,5	2835	2047,5	787,5	38,5
2	Klozantel	240	11,5	8,5	2760	2040,0	720,0	35,3
3	Iversantapplus	195	13	9,0	2535	1755,0	780,0	44,4
	Jami	750	X	X	8130	5842,5	2287,5	39,2

3-jadvalni tahliliy natijalarini ko'rib chiqsak, rentabellik darajalari bir xil bo'ldi. Qolgan kategoriyalari 2-jadval ko'rsatkichlaridan farq qiladi, ya'ni 10 kun emas, 20 kunlik sotuv natijalari quyidagicha bo'ldi: jami pul tushumi va tannarx so'mmalari bilan "Ivermektin" preparatini sotish natijasida olingen foyda summasi "Iversantapplus" preparatiga nisbatan 7 ming 500 so'mga ko'p bo'ldi. "Klozantel" preparatida esa 67 ming 500 so'mga "Ivermektin" preparatiga nisbatan kam foyda olindi. Lekin, uchala dori preparati ham chorvachilik tarmog'ida iqtisodiy samaradorlikni oshishiga xizmat qiladi. Ivermektin: qoramol, qo'y, echki va kiyiklarning parazitar kasalliklarini davolash uchun ishlatalidigan preparatdir. Klozantel: bu parazit hujayrani energiya manbasidan mahrum qiladi va uning o'limiga olib keladi[8]. Bundan ko'rindaniki, "Ivermektin" har ikki preparatga nisbatan ham ko'proq talab etilgan. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, assosiy sabab, chorvachilik bilan band iste'molchilar "Ivermektin" dari preparatini sotib olishga o'rganib qolishganidir. Ikkinci o'rinda klozantel sotilgan bo'lib u ikki tomonlama ya'ni tashqi va ichki parazitlarga ta'siri boshqa preparatlarga nisbatan samaraliroq, chunki ko'pchilik antiparazitar preparatlar bir yo'nalishda ta'sir qiladi. Eng kam sotilgan preparat iversantapplus bo'ldi, chunki bu preparat boshqaliga nisbatan yangiroq va bahosi jihatidan ham ularga nisbatan yuqoriroq turadi.

Veterinariya dori preparatlarini chorvachilik koxonalariga, klasterlarga, iste'molchilarga, ya'ni chorva xodimlariga o'z vaqtida doimiy yetkazib berish borasida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (sobiq qishloq xo'jaligi instituti) Samarqand viloyati Agrosanoat majmuasining Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish bo'yicha boshqaruvi Kengashining 1987-yil 11-avgust № 5/13 Qaroriga asosan Samarqand shahrida 1989, 1990, 1991-yillarda "Meva-sabzavotlarni iste'molchilargacha yetkazishdagi iqtisodiy va sotsial muammolar yechimi" (rus tilida) mavzusidagi olimlar va pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyasiga binoan "Buyurtma stoli" tashkil qilinib, tovar aylanmasi 1,8–1,5-martaga oshgan edi. Biroq sobiq ittifoq parchalanishidan keyin ushbu "Buyurtma stoli" o'z faoliyatini to'xtatdi. Hozirgi kunda ovqatlanish maskanlari, xususiy savdo tarmoqlarining ayrimlari tomonidan tashkil etilgan, xolos. Lekin markazlashgan tarzda "Buyurtma stoli" faoliyatini qishloq xo'jaligida quyidagi tavsiyalar asosida mahalliy va xorijiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Shu bois qishloq xo'jaligiga infratuzilma-xizmat ko'rsatish brigadalarini, jumladan, "Vetapteka-chorvachilik majmuasi", "Dala-chorvachilik majmuasi", "Dala-dasturxon", "Dala-magazin-uy", "Kimyo mas'uliyati cheklangan jamiyati – dala" "Baza-qurilish obyekti" va boshqa shakllardagi infratuzilma xizmat turlarini ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida qayta tashkil etish va ular faoliyatini raqamlashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar



nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor”^[3]. Olim-pedagoglarning ilmiy-amaliy tavsiyalari asosida tashkil etilishi kerak bo'layotgan “Buyurtma stoli” infratuzilma-xizmat faoliyatida raqamli iqtisodiyotni veterinariya dori preparatlarini buyurtmalarga asosan joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yo'nalishda xorijiy tajribalaridan misol keltiramiz: Yaponiya paytaxti Tokiodagi aholidan tushgan buyurtmalar joylashgan joyidan qat'i nazar 12 daqiqagacha, Kanada poytaxti Ottavada esa mijozning manziliga 10 daqiqagacha bo'lgan vaqt davomida buyurtmasi yetkazib berilar ekan^[10,11]. 2020-yil 26-mart, PQ-4653-soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to'g'risidagi Qarori qabul qilindi^[4]. Ushbu qarorni ijrosini amalga oshirish borasida joylarda amaliy ishlar bajarilmoqda. Bugungi kunda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli ravishda xizmat ko'rsatish subyektlari tomonidan yil davomida nobudgarchilikka yo'l qo'ymasdan iste'molchilarga yetkazib berishda raqamli iqtisodiyotga o'tish, uni hayotga joriy etish ko'p masalalarni hal qilishda o'z o'rniqa egadir. Bandlikka erishish, kambag'allikni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash jarayonlari va xorij investorlarini iqtisodiyotimizga, jumladan, infratuzilma-xizmatlar sohasiga jalb etish, mahalliy va xorij tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi^[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosalar:

- 1) olib borilgan kuzatish ishlardan so'ng yangi kirib kelayotgan dori vositarini aholi orasida targ'ibot qilish, reklama roleklarini qiziqarliroq va odamlarni jalb qiladigan qilib tayyorlash juda past darajada.
- 2) dori preparatlarini tannarxi juda yuqoriligacha qolmoqda.
- 3) veterinariya dori preparatlarini ishlab chiqarish zavodlarining quvvati yetarli emas.

Takliflarimiz:

- 1) ishlab chiqarish zavodlarini ko'paytirib, veterinariya dori preparatlari raqobatdoshligini oshirish;
- 2) veterinariya dorixonalari Samarcand shahrida yetarli, lekin ularni dori preparatlar bilan ta'minlashda markazlashgan, raqamlashtirilgan tizimga o'tkazilishi kerak;
- 3) rentabellik darajasi past foizga ega bo'lgan “Klozantel” preparat bo'yicha uning ahamiyati haqidagi tashviqotlarni ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida amalga oshirish;
- 4) Samarcand shahrida markazlashgan “Buyurtma stoli” mavjud edi, qaytadan takomillashgan holatda tiklash va uni faoliyatini iqtisodiy raqamlashtirish zarur;
- 5) ayrim tumanlarda mahalliy va xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligi tarmoqlariga, jumladan, veterinariya sohasiga jalb etish, qo'shma dasturlar va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil qilish;
- 6) kambag'alchilikni kamaytirish jarayoni kutgan darajadan ayrim qishloq hududlarida past darajada qolmoqda, ularni bandligini ta'minlashda mulkchilikning har xil turlari va shakllarini joriy etish, jumladan, veterinariya dori preparatlarini buyurtmachilarga yetkazib berish bo'yicha;

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'rzasasi. 2022-yil 24-26-mart kunlari mamlakatimizda ilk bor Toshkent shahrida xalqaro investitsiya forumi (TXIF) materiallari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021-yil 11-martdaggi PF-6186-soni Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi:// “Xalq so'zi”, 2020-y., 25-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to'g'risidagi qarori, 2020-yil 26-mart, PQ-4653-soni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni,2022-yil 7-mart, PF-87-soni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 28-martdaggi PF-4254-soni qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 28-martdaggi PF-5696-soni Farmoni
8. Комбинированный противопаразитарный лекарственный препарат для лечения и контроля желудочно – кишечных и легочных нематод, 19, 2021
9. Samarcand viloyati qishloq xo'jaligi va statistika boshqarmasining 2021–2022-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari,
10. Mualliflarning ilmiy va amaliy tadqiqotlari natijalari,
11. Internet ma'lumotlari va matbuot manbalar.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.